



UDK: 316.7:37.017

Lola SOHIBOVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti
E-mail: soxibovalola84@gmail.com

Renessans ta'lim universiteti O.Musayev, professori, falsafa fanlari doktori taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SHAXS MADANIY SAVIYASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (ILMIY VA AXLOQIY MADANIYAT UYG'UNLIGIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviasining rivojlanish tendensiyalari ilmiy va axloqiy madaniyat uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy jamiyatda shaxs madaniy kamolotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy omillar ochib berilgan. Ilmiy madaniyatning shaxs intellektual salohiyati va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni, axloqiy madaniyatning esa ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimida ilmiy bilimlar bilan milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini uyg'unlashtirish shaxs madaniy saviasini yuksaltirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida umumlashtirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, jamiyat, tafakkur, madaniy saviya, axloq, innovatsiya.

В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО УРОВНЯ ЛИЧНОСТИ (В КОНТЕКСТЕ ГАРМОНИИ НАУЧНОЙ И НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ)

Аннотация

В данной статье анализируются тенденции развития культурного уровня личности в условиях социальных реформ в Узбекистане с точки зрения гармонии научной и нравственной культуры. В исследовании раскрываются социально-политические и духовно-просветительские факторы, влияющие на культурное становление личности в современном обществе. Обосновывается роль научной культуры в развитии интеллектуального потенциала и критического мышления личности, а также значение нравственной культуры в формировании социальной ответственности и гражданской позиции. Кроме того, с научной точки зрения показано, что гармоничное сочетание научных знаний с национальными и общечеловеческими нравственными ценностями в системе образования и воспитания является важным условием повышения культурного уровня личности. Результаты исследования обобщены на основе социально-философского анализа и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: Личность, общество, мышление, культурный уровень, нравственность, инновация.

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF AN INDIVIDUAL'S CULTURAL LEVEL IN UZBEKISTAN UNDER SOCIAL REFORMS (IN THE CONTEXT OF THE HARMONY OF SCIENTIFIC AND MORAL CULTURE)

Annotation

This article analyzes the trends in the development of an individual's cultural level in Uzbekistan under conditions of social reforms from the perspective of the harmony between scientific and moral culture. The study reveals socio-political and spiritual-enlightenment factors that influence personal cultural development in modern society. The role of scientific culture in enhancing intellectual potential and critical thinking is substantiated, while the importance of moral culture in shaping social responsibility and civic engagement is also emphasized. Furthermore, the article scientifically demonstrates that integrating scientific knowledge with national and universal moral values within the education system is a key condition for improving an individual's cultural level. The research findings are summarized based on socio-philosophical analysis, and practical recommendations are proposed.

Key words: Individual, society, thinking, cultural level, morality, innovation.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonlarda inson omili, xususan, shaxsning madaniy saviasini, ma'naviy kamoloti va intellektual rivoji ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zero, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik qadriyatlarini qaror toptirish, avvalo, ilmiy va axloqiy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviasining rivojlanishi faqat bilimlar majmui bilan cheklanmay, balki uning ilmiy tafakkuri, axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga munosabati orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, ilmiy madaniyat va axloqiy madaniyatning o'zaro

uyg'unligi shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Globalashuv va axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi shaxs ongi va madaniy saviasiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Turli mafkuraviy ta'sirlar, axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlar sharoitida ilmiy tafakkur bilan axloqiy barqarorlikni uyg'un rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa ijtimoiy islohotlar jarayonida shaxs madaniy saviasining rivojlanish tendensiyalarini chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviasining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy va axloqiy madaniyat uyg'unligi asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy-tahliliy yondashuv, qiyosiy

tahlil va ijtimoiy-falsafiy usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari ta'lim-tarbiya tizimi va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi va madaniy saviyasining yuksalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion taraqqiyot sharoitida shaxsning ilmiy dunyoqarashi hamda axloqiy qadriyatlarining uyg'un rivojlanishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Ilmiy madaniyatning ratsionallik va tanqidiylik kabi jihatlari axloqiy madaniyatning insonparvarlik, mas'uliyat va adolat tamoyillari bilan uyg'unlashgandagina barkamol shaxs shakllanishi ta'minlanadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda shaxs madaniy saviyasining yangi rivojlanish tendensiyalarini shakllantirmoqda. Biroq zamonaviy jarayonlarda ayrim hollarda ilmiy bilimlar bilan axloqiy qadriyatlar o'rtasida nomutanosiblik, yoshlar ongida pragmatik qarashlarning ustuvorlashuvi kuzatilmog'da. Shu bois ilmiy va axloqiy madaniyat uyg'unligini tizimli tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, islohotlar markaziga inson omilini qo'ydi. Davlat siyosati insonni nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va madaniy taraqqiyotning asosiy subyekti sifatida shakllantirishga qaratildi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, shaxs madaniy saviyasining yuksalishi islohotlarning ma'naviy-axloqiy va ilmiy-intellektual poydevorini mustahkamlaydi. U.M. Kenjayev ta'kidlaganidek, ijtimoiy islohotlarning samaradorligi bevosita shaxs ongidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, befarqlik ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi va ijtimoiy vorisiylikning uzilishi bilan chambarchas aloqadordir [1].

Mazkur fikr ijtimoiy ong shakllanishida befarqlikni ijtimoiy inertlik ko'rinishi sifatida talqin etadi. Falsafiy jihatdan befarqlik jamiyatning ma'naviy immunitetini susaytirib, ijtimoiy hamjihatlik va madaniy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kenjayev befarqlikni bartaraf etish yo'lini ma'naviy ongni yangilash, ijtimoiy xabardorlikni oshirish hamda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashda ko'radi [1]. Bu yondashuv shaxsning jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirish madaniy saviya oshishining ontologik asosi ekanini ko'rsatadi.

M.A. Mavrulova esa ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviyasining rivojlanishini yangi ma'naviy makon barpo etish bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, shaxs ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish jamiyat barqarorligining muhim omilidir [2]. Muallif madaniyatni axloqiy va estetik qadriyatlar tizimi sifatida talqin etib, ilmiy tafakkur bilan ma'naviy qadriyatlar uyg'unligini ijtimoiy modernizatsiyaning falsafiy asosi deb hisoblaydi. Uning fikricha, shaxs madaniy saviyasi ehtiyojlar ierarxiyasining yuqori bosqichiga ko'tarilgandagina barqaror shakl oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviyasining yuksalishi masalasi falsafa, ma'naviyatshunoslik va ijtimoiy psixologiya fanlarida muhim o'rin tutmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxs madaniy rivoji – bu ma'naviy dunyoqarash, ilmiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy faollik uyg'unlashgan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonda ilmiy va axloqiy madaniyatning o'zaro boyituvchi aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi.

F.Y. Qodirov shaxs madaniy saviyasini fuqarolik madaniyati bilan bog'lab, uni "ilmiy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy mas'uliyatning uyg'un tizimi" sifatida

talqin etadi [3]. M.X. Fayziyeva esa ma'naviy-intellektual uyg'unlikni inson tafakkuri barqarorligi va ijtimoiy muvozanat asosi deb baholaydi [4]. M.T. Parpiyev shaxs madaniyatining rivojini ilmiy tafakkur va axloqiy mas'uliyat uyg'unligida kechadigan jarayon sifatida ko'rsatadi [5]. D.K. Djumaniyazova ma'naviy kamolotni tafakkur, ruhiyat va axloqiy qadriyatlar birligida tahlil qilib, ilmiy tafakkur bilan axloqiy tozalik uyg'unligini madaniy rivojning yuksak bosqichi deb baholaydi [6]. Z.D. Bojtemirova esa axloqiy ehtiyojlarni shaxs madaniyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda shaxs madaniy saviyasining yuksalishi ijtimoiy-ma'naviy islohotlar mazmuni bilan uzviy bog'liq. Madaniy saviyaning o'sishi inson tafakkuri chuqurlashuvi, axloqiy tozalik va fuqarolik mas'uliyati yuksalishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot tizimli, tarixiy-retrospektiv, qiyosiy va empirik metodlar asosida olib borilgan. Tizimli yondashuv shaxs madaniyatini ijtimoiy tizim elementi sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi, tarixiy-retrospektiv metod milliy tafakkur izchilligini ochib beradi, qiyosiy tahlil esa o'zbek modeli va jahon tajribasini solishtirish imkonini yaratadi. Empirik usullar shaxsning axloqiy-ruhiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga yordam beradi. Metodlarning uyg'un qo'llanilishi shaxsda ilmiy tafakkur va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asosda ochib beradi.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar va bunyodkorlik ishlari shaxsning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashi va madaniy saviyasini ham yangilamoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimidagi islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning kuchayishi hamda ilmiy-innovatsion imkoniyatlarning kengayishi shaxsda ilmiy madaniyat shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq ilmiy madaniyat axloqiy madaniyat bilan uyg'un rivojlanmas ekan, shaxs kamoloti to'liq ta'minlanmaydi.

Muhokamalar ilmiy madaniyat ratsional fikrlash, tanqidiy tahlil va innovatsion yondashuvni shakllantirishini, axloqiy madaniyat esa insoniylik, mas'uliyat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Shaxs madaniy saviyasining rivojlanish tendensiyalari ilmiy bilimlarni axloqiy mezonlar asosida qo'llash, fuqarolik mas'uliyatining ortishi hamda milliy meros bilan zamonaviy tafakkur uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'lmoqda.

M.T. Parpiyevning ta'kidlashicha, shaxs ma'naviy madaniyati ijtimoiy islohotlarning inson ongidagi ifodasidir [8]. Bu yondashuv shaxs madaniy saviyasining refleksiv xarakterini ochib beradi. Z.D. Boytemirova axloqiy ehtiyojlarni shaxs ma'naviy kamolotining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi [9], D.K. Jumaniyozova esa ilmiy va axloqiy omillar uyg'unligini shaxs ma'naviyatining integral modeli sifatida asoslaydi [10].

Sharq va G'arb falsafiy an'analari ham ilm va axloq uyg'unligini shaxs kamolotining asosiy sharti sifatida talqin etadi. Forobiy, Ibn Sino va Navoiy ilmiy axloqiy kamolot bilan bog'lagan bo'lsa, Aristotel, Kant va Veber ilmiy taraqqiyotning axloqiy mas'uliyat bilan muvofiqlashuvi zarurligini ta'kidlagan. O'zbekistonda ijtimoiy islohotlar sharoitida shaxs madaniy saviyasining rivojlanishi ilmiy va axloqiy madaniyatning dialektik birligida namoyon bo'lmoqda. Mazkur uyg'unlik jamiyat taraqqiyotining insoniy o'lchovini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar shaxs kamoloti va uning madaniy saviyasi bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy islohotlar shaxsning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faolligini, balki ilmiy tafakkuri va axloqiy qadriyatlar tizimini

ham rivojlantirishni taqozo etadi. Ilmiy madaniyat ratsional fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantirsa, axloqiy madaniyat ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy barkamollikni mustahkamlaydi. Ularning uyg'unligi shaxs madaniy saviyasining barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar ilmiy va axloqiy madaniyat integratsiyasiga xizmat qilmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ilmiy bilimlar bilan uyg'unlashuvi shaxs madaniy saviyasini yuksaltirishning muhim tendensiyasidir. Globallashuv sharoitida esa ilmiy madaniyat axborotni tanqidiy tahlil qilish imkonini bersa, axloqiy madaniyat uni ma'naviy mezonlar asosida baholashga yordam beradi. Bu uyg'unlik shaxsning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda shaxs madaniy saviyasining rivojlanishi ilmiy va axloqiy madaniyatning dialektik birligida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayon ta'lim

tizimining modernizatsiyasi va milliy-ma'naviy qadriyatlarining zamonaviy tafakkur bilan integratsiyasi asosida kechib, jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: ijtimoiy fanlar mazmunini ilmiy va axloqiy komponentlar integratsiyasi asosida yangilash; uzluksiz ta'lim tizimida madaniy saviyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shaxsning ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'liq holda baholash mexanizmini ishlab chiqish; OAV va raqamli platformalarda ilmiy-axloqiy jamiyatni mazmundagi kontentni ko'paytirish; mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari doirasida madaniy loyihalarni tizimli yo'lga qo'yish; shaxs madaniy saviyasini monitoring qilish tizimini joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar shaxsni ongli, mas'ul va faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Kenjayev U.M. Shaxs befarqligi: mazmuni, shakllari, sabablari va oqibatlari. Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – 52 b. – B. 9.
2. Mavrulova M.A. Yangi ma'naviy makonni barpo etishda shaxs ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning o'rni. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2024. – 83 b. – B. 5.
3. Mavrulova M.A. Yangi ma'naviy makonni barpo etishda shaxs ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirishning o'rni. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2024. – 83 b. – B. 7.
4. Qodirov F. Y. Shaxs fuqarolik madaniyati: nazariy modeli va shakllantirish yo'llari. – Buxoro: BuxDU nashri, 2023. – 130 b. (12–18-betlar).
5. Fayziyeva M. X. Shaxsda psixologik himoya mexanizmini shakllantirishning ijtimoiy-etnik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2023. – 201 b. (46–59-betlar).
6. Parpiyev M. T. Yangi O'zbekistonda shaxs madaniy madaniyatini takomillashtirish omillari. – Toshkent: O'zMU, 2020. – 150 b. (25–28-betlar).
7. Djumaniyazova D. K. Shaxs ma'naviyatining shakllanishida insaniylik va ilohiylik uyg'unligi. – Toshkent: O'zMU, 2019. – 126 b. (23–27-betlar).
8. Bojtemirova Z. D. Shaxs axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish omillari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2008. – 147 b. (14–15-betlar).
9. Парпиев М.Т. Янгиладан ўзбекистонда шахс маънавий маданиятини такомиллаштириш омиллари. Автореф. – Тошкент, 2020. – 6–25-б.
10. Бойтемирова З.Д. Шахс ахлоқий эҳтиёжларини шакллантириш омиллари. Автореф. – Тошкент, 2008. – 3–18-б.
11. Жуманиязова Д.К. Шахс маънавийнинг шаклланишида инсонийлик ва илоҳийлик уйғунлиги. Автореф. – Тошкент, 2019. – 5–22-б.
12. Soxibova L.J. Шахс маданий савияси – маданий ривожланганлик ифодаси. Общество и инновации. – Тошкент, 2023. – 220-224-б.